

VI. TRANSPORT



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 2 201,5 mlrd soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining oʻsish surʻati 113,2 foizni tashkil etdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 10,5 foizni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari boʻyicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bogʻliq boʻlgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2025-yilning 1-yanvar holatiga koʻra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bogʻliq boʻlib, faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 340 birlikni, yoki ularning umumiy sonining 3,2 foizini tashkil etdi. Ulardan 337 birlik (99,1 %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari boʻyicha ifodalanishi

Transport xizmatlarining turlari boʻyicha tarkibi
(2024-yil yanvar-dekabr)



Avtomobil

95,9

Yordamchi transport faoliyati

3,2

Pochta

0,9





Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha ifodalanishi

	2024 yil yanvar-dekabr	2023 yil yanvar-dekabr nisbatan o'sish sur'ati, foizda
--	------------------------	---

Avtomobil transporti xizmatlar

Tashilgan yuk, mln t	36,1	100,6
----------------------	------	-------

shu jumladan:

Avtomobil transportida	36,1	100,6
------------------------	------	-------

Yuk aylanmasi, mln t km	1 109,0	100,5
-------------------------	---------	-------

shu jumladan:


Avtomobil transportida	1 109,0	100,5
------------------------	---------	-------



Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yuklarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – 60,3 foiz.


Taqqoslash uchun: 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 59,7 foizni tashkil etgan.

Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi





**Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**
(2024 yil yanvar-dekabr)



Yo'lovchi tashish 2024 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 95,7 mln kishi tashilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 foizni tashki qildi.

Yirik korxonalar bo'yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo'yicha hajmli korxonalar soni 25 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 2,8 mln t, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,5 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 7,8 %);

Yuk aylanmasi hajmi 32,9 mln t km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,2 foizni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 3,0 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 5,4 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,6 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 5,7 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 73,8 mln yo'lovchi km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,6 foizni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 2,8 %).

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 94,3 foizni tashkil etgan.



Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2024 yil yanvar-dekabr	2023 yil yanvar-dekabr nisbatan foizda
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln kishi	95,7	101,0
<i>shu jumladan:</i> avtomobil transportida	95,7	101,0
Yo'lovchi aylanmasi, mln yo'lovchi km	2 650,0	101,1
<i>shu jumladan:</i> avtomobil transportida	2 650,0	101,1

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha:

2024 yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti bo'yicha quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 25,5 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 70,7 %);

Yuk aylanmasi hajmi 515,8 mln t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 foizni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 46,5 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 32,3 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,7 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 33,7 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 683,3 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 foizni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 25,8 %).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha:

Tashilgan yuklar hajmi 7,8 mlntonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,3 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 21,5 %);

Yuk aylanmasi hajmi 560,3 mln t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,0 foizni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 50,5 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 58,0 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,9 foizni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 60,6 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 1 892,9 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,6 foizni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 71,4 %).